

## PSIXOLOGIYADA SHAXS IJTIMOYILASHUVI VA IJTIMOY XULQ-ATVOR MASALASI

Erdoshova Durdona

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti  
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq-atvori ilmiy jihatdan yoritiladi. Ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar hamda xulq-atvor standartlarini o'zlashtirishi sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon inson hayotining ilk bosqichlaridan boshlanib, butun umr davom etadi. Maqolada ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishida oila, ta'lim tizimi va ijtimoiy muhitning ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda yoshlarning ijtimoiylashuvida internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'rnini ham yoritiladi. Natijada ijtimoiylashuv shaxs faoliyatini belgilovchi muhim psixologik va ijtimoiy jarayon ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, ijtimoiy xulq-atvor, ijtimoiy norma, ijtimoiy sanksiya, ijtimoiy ustanovka, shaxs, jamiyat, qadriyat, oila, ta'lim, ijtimoiy muhit, internet.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы социализации личности и социального поведения с научной точки зрения. Процесс социализации трактуется как адаптация личности к обществу, усвоение социальных норм, ценностей и стандартов поведения. Подчеркивается, что данный процесс начинается с раннего детства и продолжается на протяжении всей жизни человека. Анализируется влияние семьи, системы образования и социальной среды, а также роль интернета и социальных сетей в современном обществе. В результате обосновывается, что социализация является важным психологическим и социальным процессом.

**Ключевые слова:** социализация, социальное поведение, социальная норма, социальная санкция, социальная установка, личность, общество, ценности, семья, образование, социальная среда, интернет.

**Abstract.** This article examines the issues of personality socialization and social behavior from a scientific perspective. The process of socialization is interpreted as an individual's adaptation to society, including the acquisition of social norms, values, and standards of behavior. It is emphasized that this process begins in early childhood and continues throughout life. The influence of family, education, social environment, and modern digital factors such as the internet and social media is analyzed. As a result, socialization is substantiated as an important psychological and social process that determines an individual's activity in society.

**Keywords:** socialization, social behavior, social norm, social sanction, social attitude, personality, society, values, family, education, social environment, internet.

**Kirish.** Shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq-atvori psixologiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson tug'ilgandan boshlab jamiyat ichida yashaydi va asta-sekin atrofidagi odamlar bilan munosabatga kirishadi. Shu jarayonda u jamiyat qoidalarini o'rganadi, qanday harakat qilish kerakligini tushunadi va o'z xulq-atvorini shakllantiradi. Ijtimoiylashuv inson hayotida juda muhim jarayon bo'lib, u orqali shaxs jamiyatga moslashadi

va o'z o'rnini topadi. Oila, maktab, do'stlar va atrof-muhit bu jarayonga bevosita ta'sir qiladi. Har bir inson o'z hayoti davomida turli vaziyatlarga duch keladi va shu vaziyatlar uning xulq-atvorini shakllantirishga yordam beradi. Ijtimoiy xulq-atvor esa insonning jamiyatda o'zini qanday tutishi, boshqalar bilan qanday munosabat qilishi va qanday qarorlar qabul qilishini ifodalaydi.

**Asosiy qism.** Shaxs jamiyatda yashar ekan, doimo ijtimoiy muhit ta'sirida bo'ladi va shu ta'sir asosida ijtimoiylashuv jarayonidan o'tadi. Ijtimoiylashuv davomida shaxs jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalarni ham o'zlashtiradi. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqilgan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakterlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, “Assalomu alaykum” deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarini bajarishi lozimligi - norma va hokazo. Ular insonning qanday harakat qilishi kerakligini tartibga soladi.(1) Shaxsning xulq-atvori aynan shu normalar asosida shakllanadi. Agar shaxs ijtimoiy normalarga amal qilsa, uning xatti-harakati jamiyat tomonidan ijobiy baholanadi. Aksincha, normalarga zid harakat qilinsa, jamiyat tomonidan ijtimoiy sanksiyalar qo'llanadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlaridir. Ular ijobiy (maqtov, rag'bat) yoki salbiy (tanbeh, cheklov) ko'rinishida bo'lishi mumkin.(2)

#### **Ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillar**

Shaxs ijtimoiylashuviga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

**Mikro omillar** — oila, do'stlar, maktab;

**Mezo omillar** — mahalla, ta'lim muassasalari;

**Makro omillar** — jamiyat, davlat siyosati, madaniyat Zamonaviy davrda ushbu omillar qatoriga raqamli muhit va internet ham qo'shilmoqda.

#### **Oila va maktab ta'sirining qiyosiy tahlili**

Shaxs ijtimoiylashuvida oila va maktab muhim omillar hisoblanadi, biroq ularning ta'siri darajasi turli bosqichlarda turlicha namoyon bo'ladi. Muallifning fikricha, dastlabki bosqichda oila ta'siri kuchliroq hisoblanadi, chunki insonning ilk ijtimoiy tajribasi aynan oila muhitida shakllanadi. Bola nutqi, odob-axloqi, qadriyatlar va xulq-atvorining asosiy elementlarini oiladan o'zlashtiradi. Biroq keyingi bosqichlarda, ayniqsa maktab davrida, ta'lim muassasalarining ta'siri ortib boradi. Maktab shaxsni jamiyat bilan kengroq tanishtiradi, ijtimoiy normalar va intizomni tizimli ravishda o'rgatadi hamda jamoaviy muhitda yashash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli, umumiy tahlilga ko'ra, oila shaxs ijtimoiylashuvining asosiy poydevorini yaratsa, maktab ushbu poydevorni rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ularning qaysi biri kuchliroq degan savolga yagona javob yo'q, chunki ular bir-birini to'ldiruvchi va uzviy bog'liq omillardir. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonida ana shu normalar va sanksiyalarni o'zlashtiradi va ularga mos ravishda o'z xulq-atvorini shakllantiradi. Bu jarayonda oila, maktab va ijtimoiy muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Oila birinchi ijtimoiy tajribani bersa, maktab va jamiyat bu tajribani kengaytiradi va mustahkamlaydi.(3) Shuningdek, shaxs xulq-atvorida ijtimoiy ustanovkalar ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ustanovka - bu insonning jamiyat, odamlar yoki hodisalarga nisbatan oldindan shakllangan fikri, munosabati va tayyor reaksiyasidir. U ko'pincha tarbiya, tajriba va atrof-muhit ta'sirida paydo bo'ladi. Masalan, “ Falon millat vakillari juda mehmondo'st”, “ Ko'p o'qigan odam albatta muvaffaqiyatli bo'ladi ” degan fikrlar ham ijtimoiy ustanovkaga kiradi.

Natijada shaxs jamiyat talablariga moslashadi, ijtimoiy normalarga amal qiladi, sanksiyalarni anglaydi va ijtimoiy ustanovkalar asosida o'z xulq-atvorini boshqaradi.

### **Zamonaviy ijtimoiylashuv (internet ta'siri)**

Hozirgi kunda yoshlarning ijtimoiylashuvi an'anaviy omillar bilan bir qatorda internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida shakllanmoqda. Internet yoshlarning dunyoqarashi, fikrlashi va muloqot madaniyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

#### **Ijobiy jihatlari:**

- tez axborot olish
- global fikrlash shakllanishi

#### **Salbiy jihatlari:**

- noto'g'ri axborot ta'siri
- virtual muhitga haddan tashqari bog'lanish

Shu sababli, zamonaviy ijtimoiylashuvda raqamli muhitni to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega.

**Amaliy misol.** Masalan, bugungi kunda ko'plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi bilim va ko'nikmalarni egallamoqda. Shu bilan birga, ayrim yoshlar noto'g'ri axborot ta'sirida salbiy xulq-atvorni ham o'zlashtirishi mumkin. Bu holat ijtimoiylashuv jarayonining murakkab va ikki tomonlama ekanligini ko'rsatadi.

**Nazariyalar.** Shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq-atvori bir nechta asosiy nazariyalar orqali tushuntiriladi. Avvalo, **sotsializatsiya nazariyasiga** ko'ra, shaxs tug'ilgandan boshlab jamiyat ta'sirida shakllanadi va ijtimoiy tajribani o'zlashtirib boradi. Bu jarayon insonning jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi.

**Faoliyat nazariyasida** E.G'oziyev shaxs rivojlanishi uning faoliyati bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Insonning harakatlari va tajribasi uning xulq-atvorini shakllantiradi.

**Ta'lim-tarbiya nazariyasiga** ko'ra, M.Davletshin shaxs ijtimoiylashuvida oila va maktab muhim rol o'ynaydi. Aynan shu muhit orqali inson ijtimoiy normalarni o'rganadi va jamiyatga moslashadi.

**Ijtimoiy nazorat nazariyasida** jamiyat shaxs xulq-atvorini ijtimoiy normalar va sanksiyalar orqali tartibga solishi aytiladi. Bu orqali jamiyatda tartib va barqarorlik saqlanadi.

**Ijtimoiy ustanovka nazariyasiga** ko'ra, shaxsning oldindan shakllangan qarashlari uning xulq-atvoriga bevosita ta'sir qiladi va turli vaziyatlarda qanday harakat qilishini belgilaydi. Bundan tashqari D. N Uznadze ham ustanovka va ijtimoiy ustanovka (attityud) ni bir-biridan ajratish lozimligi ta'kidlaydi. Ustanovka umumpsixologik jihatdan qaralib, ongning ma'lum bir reaksiyaga bo'lgan tayyorligini, ongsiz fenomen deb ta'kidlanadi.

#### **Ijtimoiylashuv bosqichlari**

Ijtimoiylashuv jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshadi:

**Birlamchi ijtimoiylashuv** — insonning bolalik davrida oila muhitida shakllanish jarayoni. Bu bosqichda asosiy xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlar o'zlashtiriladi. **Ikkilamchi ijtimoiylashuv** — maktab, do'stlar va jamiyat orqali davom etadi. Bu bosqichda shaxs ijtimoiy rollarni egallaydi.

**Kasbiy ijtimoiylashuv** — insonning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, unda kasbiy me'yorlar va malakalar shakllanadi. Mazkur bosqichlar shaxsning ijtimoiy rivojlanishida uzviy bog'liq holda kechadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, unda inson jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtiradi hamda shu asosda o'z xatti-harakatlarini shakllantiradi. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhit shaxsning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy normalar shaxs xulqini tartibga soluvchi asosiy omil bo'lsa, ijtimoiy sanksiyalar ushbu normalarga rioya etilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy ustanovkalar shaxsning muayyan vaziyatlarga nisbatan munosabatini belgilab, uning xulq-atvorini yo'naltiradi. Natijada shaxs jamiyat talablariga moslashgan, ijtimoiy jihatdan yetuk va barqaror xulq-atvor egasi sifatida shakllanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. - Toshkent: „O'qituvchi“ nashriyoti, 2002.
2. Davletshin M. Pedagogik psixologiya asoslari. - Toshkent: „O'qituvchi“ nashriyoti, 2006.
3. Ivanov V.V. Umumiy psixologiya. - Moskva: „Prosveshcheniya“ nashriyoti, 2004.